

JAHON MOLIYAVIY-IQTISODIY INQIROZLARNING YUZAGA KELISH SABABLARI NAZARIYASI

Palvanov Marlen Muratovich ¹

¹ O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:06.05.2025

Revised: 07.05.2025

Accepted:08.05.2025

KALIT SO'ZLAR:

iqtisodiy inqiroz,
iqtisodiy sikllar, ortiqcha
ishlab chiqarish klassik
inqirozi, kredit "ko'pigi",
derivativ bitimlar.

Maqolada iqtisodiy inqirozning mohiyati, nazariy- metodologik asoslari, iqtisodiy sikllar, 2008 yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining kelib chiqish sabablari va uning iqtisodiyotga ta'sirini kamaytirishga hamda oqibatlarini oldini olishga va yumshatishga asos bo'lib xizmat qilgan omillar tahlil qilingan va atroflicha xulosa, takliflar keltirilgan.

KIRISH. Mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishish, jahon bozorida milliy mahsulotlarimizning raqobatbardoshligini ta'minlash, xalqimizning hayot darajasi va farovonligini oshirish bugungi kundagi eng ustuvor vazifalardan hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti SH.M. Mirziyoyev bu borada o'z ma'ruzalarida quyidagi fikrlarni ta'kidlaydi, "Bugun mamlakatimizning barqaror rivojlanish yo'lida izchil ilgari lab borishini tahlil qilar ekanmiz, o'tgan yili prinsipial muhim islohotlarni amalga oshirish bo'yicha qat'iy qadamlar qo'yildi, deb aytishga barcha asoslarimiz bor. Bu islohotlarning asosiy maqsadi – aholi uchun munosib hayot darajasi va sifatini ta'minlashdir. Jadal va barqaror rivojlanishga qaratilgan bu siyosat bundan keyin ham so'zsiz davom ettiriladi" [1].

Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, avvalo, barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarining pasayishiga olib keluvchi omillarni tahlil qilishni taqozo qiladi. Chunki bugun dunyo mamlakatlari iqtisodiyotida yuz berayotgan voqea-hodisalar milliy iqtisodiyotimizga o'z ta'sirini o'tkazadi. Bu so'nggi paytlarda bot-bot tilga olinayotgan iqtisodiy inqirozni, uning

kelib chiqish sabablarini, uni yuzaga kelishiga zamin hozirlovchi omillarni chuqur tahlil qilishni kun tartibidagi asosiy masalalardan biriga aylantiradi. Zero, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimov aytganlaridek, "...tobora chuqurlashib borayotgan jahon moliyaviy inqirozi mamlakatimizga ta'sir ko'rsatmaydi, bizni chetlab o'tadi, degan xulosa chiqarmaslik kerak. Masalani bunday tushunish o'ta soddalik, aytish mumkinki, kechirib bo'lmas xato bo'lur edi. Barchamiz bir haqiqatni anglab yetishimiz lozim – O'zbekiston bugun xalqaro hamjamiyatning va global moliyaviy-iqtisodiy bozorning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi"[2].

Iqtisodiyotda jami talab va taklif muvozanati, daromadlar va harajatlar muvozanati hamda iste'mol va jamg'arish muvozanatlarining buzilishi natijasida sikllilik vujudga keladi. Bu, ayniqsa, bozor iqtisodiyotiga xosdir. Shuningdek, olimlarning izlanishlari natijasiga ko'ra, birinchi klassik inqiroz ro'y berganidan beri iqtisodiy inqirozlar taxminan har 15-20 yil oraliq bilan takrorlanib turar ekan. Iqtisodiy inqirozlarning doimiy ravishda bunday takrorlanib turishi bu borada ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi. Fanda iqtisodiy inqirozning kategoriya sifatida qaralishi uning mazmun-mohiyatini yanada aniqlashtirish imkonini beradi.

Iqtisodiyotda iqtisodiy inqiroz va u bilan bog'liq jarayonlar doim e'tibor markazimizda bo'lib kelgan. Iqtisodchi olimlarining ilmiy izlanishlarida bu yo'nalish alohida ahamiyat kasb etadi.

A.Vahabov, N.Jumayev va E.Xoshimovlarning fikricha, "iqtisodiy inqiroz (retsessiya) – iqtisodiyotning shunday holatiki, mamlakat yalpi ichki mahsulotining mutlaq hajmi kamida ikki chorak mobaynida ketma-ket qisqaradi. Iqtisodiy inqiroz bozor iqtisodiyotiga xos hodisa bo'lib, ma'lum davriylik bilan takrorlanib turadi"[3, 23 b].

H.Abulqosimov va M.Abulqosimovlarning yozishicha, "inqiroz (krizis) – yalpi talab va yalpi taklif, ishlab chiqarish bilan iste'mol, iste'mol va jamg'arish hamda daromadlar bilan harajatlar o'rtasidagi ziddiyat vujudga kelganida va bu ziddiyat kuchayib ketganida yuzaga keladigan tanglik, ishlab chiqarishning pasayib ketishi, tovarlarning sotilmay qolishi", "iqtisodiy sikl – ishlab chiqarishning bir iqtisodiy inqirozidan ikkinchisi boshlanguniga qadar takrorlanib turadigan harkati. Iqtisodiy sikl – iqtisodiy rivojlanishning bir holatidan boshlanib, birin-ketin to'rt fazani bosib o'tib, o'zining oldingi holatiga qaytib kelguniga qadar o'tgan davrni o'z ichiga oladi"[4].

Iqtisodiy inqiroz tushunchasining mohiyatini yanada aniqroq tushunishimiz uchun uni ortiqcha ishlab chiqarish klassik inqirozi bilan bog'lab tadqiq etish kerak. Ma'lum bir davrda ishlab chiqarilgan barcha mahsulotlarning iste'molchilar tomonidan xarid

qilinishing imkoni yo'q. Chunki iste'molchilarning to'lov qobiliyati bilan ishlab chiqaruvchilarning jami taklifining oralig'ida mahsulot ishlab chiqaruvchilarning sof foydasi yotadi. Vaqt o'tishi bilan bunday nomutanosiblik yig'ilib, jamg'arilib boradi. Natijada xaridorlarning to'lov qobiliyatidan ortiqcha bo'lgan iste'mol tovarlari ishlab chiqariladi va taklif ortadi, asosiy kapital ortiqcha jamg'ariladi. Bu holat esa ortiqcha ishlab chiqarish klassik inqirozlarining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Keyinroq iqtisodiy inqirozlarni klassik inqirozlar bilan birgalikda tadqiq etish asnosida iqtisodiy sikllarning harakati kun tartibidagi eng dolzarb muammolar qatoridan joy oladi. Dastlab iqtisodiy sikllar borasida iqtisodchi olim Y.Shumpeter XX asrning birinchi yarmida ilmiy izlanishlar olib borgan. Uning ilmiy izlanishlari natijasi o'laroq, iqtisodiy sikllar rivojlanishi to'rtta fazada ajratib ko'rsatildi. Bular yuksalish, retsessiya, depressiya va jonlanish fazalaridir.

Birinchi faza – yuksalish bosqichida yangi g'oyalarning paydo bo'lishi, yangi tovar va xizmatlarning joriy etilishi, yangi bozorlarning kashf etilishi natijasida daromad hajmi ortadi hamda natijada iqtisodiy o'sish kuzatiladi. Bunda, albatta, ishlab chiqaruvchilarning tadbirkorlik qobiliyatlari alohida o'rin tutadi.

Retsessiya fazasida birinchi fazadagi o'sish holatidan iqtisodiyot turg'unlik holatiga o'tadi.

Uchinchi depressiya fazasida iqtisodiyotning o'sish sur'atlari orqaga ketadi, muvozanat buziladi va shart-sharoitlar yomonlashadi.

Jonlanish fazasi tovar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchilarning va davlatning bevosita aralashuvi natijasida iqtisodiy muvozanatni qayta tiklash uchun kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida yuzaga keladi. Bunda innovatsiyalar alohida ahamiyatga ega[5].

Y.Shumpeterdan tashqari mashhur iqtisodchi N.D.Kondratyev ham iqtisodiy sikllar borasida ilmiy izlanishlar olib borgan. U ilmiy izlanishlari natijasida pasayuvchi va ko'tariluvchi fazalardan iborat bo'lgan Kondratyev sikllari (K-sikl) nazariyasiga asos soldi. Bu nazariyaning asosini yuqorida aytib o'tganimizdek kapitalning jamg'arilishi bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar: kapitalning markazlashuvi, bo'linishi va qadrsizlanishi tashkil qiladi.

XX asr birinchi choragida N.D.Kondratyev o'zining 50 yillik uzunlikka ega bo'lgan katta sikllar nazariyasini isbotlaydi. U o'z izlanishlarida G'arbiy Yevropa mamlakatlari va AQShning 1790 yildan 1920 yilgacha bo'lgan oraliq davrida ba'zi bir iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlilidan foydalanadi. Olim mazkur sikllarni ikki bosqichini – ko'tarilib boruvchi va pasayuvchi to'lqinlarni ajratib ko'rsatadi. Olim o'zining ilmiy izlanishlarida

yirik va kichik sikllarning o'zaro aloqadorlikdagi harakatini yaqqol ko'rsatib beradi. Natijada u jahon xo'jaligining iqtisodiy dinamikasini uzoq muddatli prognozlashning samarali modelini taklif etadi.

N.D.Kondratyev o'zining ilmiy izlanishlarida sikllar harakatini ikkiyoqlama ekanligini alohida ta'kidlab o'tadi. Bir tomondan sikllar harakatiga sabab iqtisodiyotda mehnat va kapital o'rtasida ziddiyatlar oqibatida vujudga keladigan nomutanosibliklar hisoblansa, ikkinchi tomondan harakatga sabab qilib ishlab chiqarish vositalari rivojlanishi tufayli iqtisodiyotda yangi ukldning shakllanishini ko'rsatib beradi. Bunga misol qilib bug'dvigatellari davrining sanoat inqilobi davri bilan o'rin almashishini keltirish mumkin.

N.D.Kondratyevning fikricha uzun sikllarning asosiy elementlari quyidagilardan iborat:

➤ Kapitalistik iqtisodiyotning harakati bir necha muvozanat darajalari doirasida namoyon bo'ladi. Asosiy kapital boyliklarning (ishlab chiqarish infratuzilmasi va malakali ishchi kuchi) muvozanati xo'jalik va ijtimoiy hayotning barcha omillari bilan birgalikda ishlab chiqarishning mazkur texnik usulini belgilab beradi. Bunda muvozanatning buzilishi kapital boyliklarning yangi zaxiralarini tashkil etish zaruratini yuzaga keltiradi;

➤ Asosiy kapital boyliklarning yangilanishi esa bir tekis kechmaydi, bunda hal qiluvchi rolni ilmiy-texnik g'oyalar va innovatsiyalar o'ynaydi;

➤ Uzun siklning davomiyligi jamiyat kapital boyliklari asosiy elementlaridan biri hisoblangan ishlab chiqarish infratuzilmaviy qurilmalarining o'rtacha hayotiy davri bilan belgilanadi;

➤ Barcha ijtimoiy jarayonlar – urushlar, inqiloblar, aholi migratsiyasi iqtisodiy mexanizmning qayta shakllanish natijasidir;

➤ Asosiy kapital boyliklarning almashinuvi va uzoq muddatga cho'zilgan iqtisodiy pasayishdan chiqish natura va pul ko'rinishidagi resurslarning jamlanishini taqozo etadi. Yetarli darajada jamlanmaga erishilgach asosiy kapital boyliklarni radikal yangilash imkoniyati yuzaga keladi va bu o'z navbatida, iqtisodiyotni yangi ko'tarilish fazasiga olib chiqadi[3, 28 b].

Endi Kondratyev sikllarining fazalariga to'xtalib o'taylik. Bu sikllarning har biri ikki fazadan – ko'tarilish va pasayish fazalaridan iborat. Bugungi kunga kelib K-siklning 6 – ko'tarilish fazasi sodir bo'lmoqda. Ular quyidagilardan iboratdir:

Birinchi siklning ko'tarilish fazasi 1780-1790 yillardan 1810-1817 yillargacha, pasayish fazasi 1810-1817 yillardan 1844-1851 yillargacha bo'lgan vaqtni qamrab oladi;

Ikkinchi siklning ko'tarilish fazasi 1844-1851 yillardan 1870-1875 yillargacha, pasayish fazasi 1870-1875 yillardan 1890-1896 yillargacha bo'lgan oraliqda amalda bo'lgan;

Uchinchi sikl ko'tarilish fazasi 1890-1896 yillardan 1914-1920 yillargacha, pasayish fazasi 1914-1920 yillardan 1936-1940 yillargacha bo'lgan oraliqlardan iborat;

To'rtinchi sikl ko'tarilish fazasi 1936-1940 yillardan 1966-1971 yillargacha, pasayish fazasi 1966-1971 yillardan 1980-1985 yillargacha bo'lgan oraliq. Kondratyev davridan keyingi davr olimlari o'z ilmiy izlanishlaridoirasida real iqtisodiyot indikatorlariga va K-sikllar modeliga tayangan holda 1970 yillarda neft inqirozlari va stagflyatsiya davrini ilmiy asoslab berishadi;

Beshinchi sikl ko'tarilish fazasi 1980-1985 yillardan 2000-2007 yillargacha, pasayish fazasi 2000-2007 yillardan 2015-2025 yillargacha qamrab oladi; Bizning davrimizda ushbu pasayish fazasining boshlanishini XXI asrning boshlariga to'g'ri kelganini hammamiz yaxshi bilamiz;

Oltinchi siklning ko'tarilish fazasi 2015-2025 yillardan 2035-2045 yillargacha bo'lishi bashorat qilinmoqda. Hozirda olimlar tomonidan mazkur oltinchi siklning ikkinchi – pasayish fazasining oraliq yillarini aniqlash uchun ilmiy izlanishlar olib borilmoqda va bu ko'pgina bahs-munozaralarga sabab bo'lmoqda. Iqtisodchilar tomonidan aniqlangan bu 6-siklning ko'tarilish fazasi oraliq yillarini haqiqatga mosligini quyidagi fikrlar ham asoslab beradi. Xalqaro Valyuta Fondining rasmiy sayti ma'lumotlariga ko'ra, 2016 yilda butun dunyoda kuzatilgan sekin o'sish ko'rsatkichlaridan keyin 2017-2018 yillardagi iqtisodiy faollik biroz tezlashadi, bu ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda yaqqol ko'zga tashlanadi[6].

Mazkur sikllarning harakati natijasida resurslar sikllar oralig'ida qayta taqsimlanadi. Bu jarayonning tezlashishi esa "ko'piklar"ning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Ortiqcha ishlab chiqarish inqirozlarining ko'lamlarini kuchli kredit inqirozi bilan chuqurlashayotgan kredit "ko'pigi" tebranishlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Jahon iqtisodiyoti 2008 yilda aynan shunday vaziyatga duch kelgan: kredit "ko'pigi" chegaradan chiqdi va uning portlashi kuzatildi. AQShdagi ipoteka inqirozi ko'pchilik uchun o'zini jahon moliyaviy inqirozi sifatida namoyon etgan bo'lib, boshlang'ich kredit inqirozidan dalolat berardi. Bu global iqtisodiy tartibsizliklarning sabablaridan biridir.

Kredit "ko'pik"laridan tashqari XXI asrning boshlarida derivativ bitimlar natijasida moliya bozorlaridagi aktivlar bahosining asossiz o'sishi jahon iqtisodiyotida bir necha bor "spekulyativ ko'piklar"ga duch kelinishiga sabab bo'ldi. Bu jarayonga qarshi kurashish bo'yicha bugungi kungacha aniq bir chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilmagan, amaliy choralar ko'rilmagan. Mazkur chora-tadbirlarning aniq kompleks dasturlari ishlab chiqilishi milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlaydi. Bunda albatta fond va moliya bozorlari

faolroq ishtirok etishlari kerak. Bu narsaning amalga oshirilmasligi bank sektoriga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Chunki bankka garov uchun taqdim etilgan qimmatli qog'ozlar narxining pasayishi inqirozning yanada avj olishiga olib keladi.

Qarzdorning bank oldidagi majburiyatini bajara olmasligi natijasida mazkur qimmatli qog'ozlar fond bozorlarida sotiladi, bu esa o'z navbatida qimmatli qog'ozlar taklifining ko'payishi va ular bahosining yanada pasayishiga olib keladi. Bu banklar uchun katta miqdordagi zararlarni paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Natijada likvidlik muammosi yuzaga keladi.

Kredit "ko'pigi" tebranishlarining sur'atlari va uning jahon iqtisodiyotidagi ko'lamlari hamda boshlangan kredit inqirozining mumkin bo'lgan oqibatlarini AQSH misolida olib ko'raylik. Amerika iqtisodiyotida 1980 yildan 2008 yilgacha bo'lgan davrda uy xo'jaliklari qarzlarining nominal daromadlarga nisbati ikki martadan ortiqroq – 65 %dan 133 %gacha oshdi. Bugungi kunda bu yerda uy xo'jaliklarining qarzlar ularning yillik daromadlaridan 33 %ga oshdi. AQShning davlat qarzlar 1980 yildagi 1 trillion AQSH dollaridan 2008 yildagi 11,85 trillion AQSH dollarigacha o'sgan, bu esa o'sha paytdagi AQSH YAIMdan 80 %ga oshib ketadi [7]. Ma'lumotlar tahliliga to'xtaladigan bo'lsak, 1980 yildan keyingi salkam 30 yilda AQShdagi uy xo'jaliklari nominal daromadlarining uchdan ikki qismi qarz majburiyatlariga yo'naltirilgan bo'lsa, 2008 yilga kelib har bir uy xo'jaligining qarz majburiyati nominal daromadidan oshib, 133 %ga yetgan. Qarz hisobiga kun ko'rish kundalik turmushga aylangan. Har bir qarz majburiyatining keyingi qarz shartnomasining hisobiga qoplanishi odatiy holga aylangan. Bu vaqt mobaynida davlat qarzi bo'lsa 1185 %ga ortgan. 2015 yil holatiga AQShning tashqi davlat qarzi 17,3 trillion AQSH dollarini tashkil etadi[8].

Ma'lumotlardan ma'lum bo'lishicha, AQShda qarz majburiyatlari darajasi belgilangan meyor chegaralaridan ortib ketgan, mamlakat aholisining joriy iste'moli darajasini keskin pasaytirish kredit "ko'pigi"ning avj olishi jarayonini biroz susaytirishi mumkin. Mazkur holat banklardan olingan kreditlarning qaytarilmasligi darajasining ortishi va bank inqirozining yanada rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdir. Bu omillar so'nggi yillarda AQShda YAIMning ancha pasayishiga olib keldi. 1980 yildan 2000 yilgacha YAIM 2,7 barobarga ortgan bo'lsa, 2000 yildan 2014 yilgacha 1,7 barobarga oshgan[9].

Kredit "ko'pigi"ning avj olishi natijasida ortiqcha ishlab chiqarish inqirozi bilan qarzdorlik miqdorining ortishi yuzaga keladi. Yuqorida aytib o'tgan fikrlarimiz G'arb mamlakatlariga ham xos bo'lib, qator yetakchi davlatlarda ko'p yillar davomida yuqori iste'mol kelgusida olingan daromadlar hisobiga amalga oshirilib kelingan.

Yuqorida aytib o'tilgan iqtisodiy sikllardan tashqari 2008 yilgi iqtisodiy inqirozning vujudga kelishiga quyidagilar sabab bo'lgan:

- Xomashyo bozorlarini shu jumladan, neft bozorining qizib ketishi. 2008 yilning boshida neftning narxi o'sa boshladi va 100 AQSH dollaridan oshib ketdi. Shu yilning 11 iyulida WTI markali neftning 1 barreli 147,27 AQSH dollariga teng bo'ladi, inqiroz yuz berganidan keyin bu ko'rsatkich 56,24 gacha pasayib ketdi;

Fond va kredit bozorining qizib ketishi. 2007 yilda AQShda amalga oshirilgan substandart ipotekali kreditlash – ya'ni kam daromadli va kredit tarixi yomon bo'lgan kishilarni ipotekali kreditlash krizisi Qo'shma Shtatlardagi umummoliyaviy va bank inqirozining bevosita darakchisi bo'ldi. Bu ipoteka krizisi 2008 yil sentabrda jahon banklarining likvidligi krizisini qo'zg'atdi. LIBOR-OIS spreadi 2008 yilning sentabr-oktabr oylarida 200 bazis punktdan 250 gacha ko'ratilgan;

- Rivojlangan davlatlarda, ayniqsa, AQShda davlatning tashqi qarzi yalpi ichki mahsulotga nomutanosib ravishda ortib borganligi va boshqalar.

Boshqa mamlakatlar singari 2008 yilda yuz bergan jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozi O'zbekistonga ham o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatdi. Jahon bozorida taklifning kamayishi hisobiga eksport qilinadigan ayrim mahsulot turlari va hajmlari pasaydi. Jahon bozorida xomashyo talabining pasayishi natijasida narxlarning tushib ketishi oqibatida eksportdan keladigan daromad kamaydi. Tashqi savdodagi sherik mamlakatlarning xarid qobiliyati pasayishi hisobiga tashqi savdo aylanmasi qisqardi.

Inqiroz o'zining ilk salbiy oqibatlarini namoyon qila boshlagan kunlardan e'tiboran mamlakatimizda inqirozga qarshi choralar dasturi tayyorlana boshlandi va tez fursatlarda qabul qilindi. 2009-2012 yillarga mo'ljallangan inqirozga qarshi choralar dasturining asosini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 28 noyabrda qabul qilingan PF-4058 sonli «Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida»gi [farmoni](#) hamda uni yanada rivojlantirish maqsadida 2009 yil 20 yanvarda qabul qilingan PQ-1041 sonli «[Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida](#)»gi, 2009 yil 26 yanvarda qabul qilingan PQ-1047 sonli «[Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida](#)»gi, 2009 yil 27 yanvarda qabul qilingan PQ-1048 sonli «[2009 yilda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturi to'g'risida](#)»gi qarorlar hamda inqirozga qarshi qaratilgan boshqa bir qancha muhim hujjatlar tashkil etadi.

Dastur doirasida amalga oshirilishi belgilangan chora-tadbirlar quyidagilardan iborat edi:

1. Korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashni yanada jadallashtirish, zamonaviy, moslashuvchan texnologiyalarni keng joriy etish.

2. Joriy konyunktura keskin yomonlashib borayotgan hozirgi sharoitda eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarning tashqi bozorlarda raqobatdosh bo'lishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish va eksportni rag'batlantirish uchun qo'shimcha omillar yaratish.

3. Qat'iy tejamkorlik tizimini joriy etish, ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishni rag'batlantirish hisobidan korxonalarning raqobatdoshligini oshirish.

4. Elektroenergetika tizimini modernizatsiya qilish, energiya iste'molini kamaytirish va energiya tejashning samarali tizimini joriy etish choralari amalga oshirish.

Jahon bozorida talab pasayib borayotgan bir sharoitda, ichki bozorda talabni rag'batlantirish orqali mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash.

Soddaroq qilib aytganda, talabni rag'batlantirish, milliy ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan qator moliyaviy imtiyozlar va iqtisodiy o'sish barqarorligini ta'minlovchi chora-tadbirlar amalga oshirilishi nazarda tutilgan edi.

Inqiroz kelib chiqishining tahlili natijalari hamda A.Vahabov, N.Jumayev va E.Xoshimovlarning ilmiy izlanishlariga ko'ra 2008 yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining kelib chiqishiga asosiy sabab qilib quyidagilar ko'rsatiladi[3, 21-22-b]:

- yirik rivojlangan mamlakatlarning ko'p yillar davomida davlat byudjeti taqchilligi va salbiy tashqi savdo balansiga egaligi;
- davlat tashqi qarzi miqdorining yaimga nisbatan o'sish sur'atlari jadallashishi;
- noratsional pul-kredit siyosati hamda qayta moliyalash stavkasining surunkali ravishda past darajada ushlab turilishi natijasida qarzga yashash kundalik odatga aylanishi;
- ipoteka kreditlari berish talablarining asossiz bo'shashtirib yuborilganligi va uy-joy bozorida narxlarning qisqa muddat ichida keskin o'sishi;
- moliyaviy institutlarning majburiyatlariga nisbatan ustav mablag'larining mutanosibligining keskin buzilishi;
- qimmatbaho qog'ozlar bo'yicha reyting tashkilotlari tomonidan soxta xulosalar berilishi;
- moliyaviy audit va professional etika tamoyillarining buzilishi va soxta audit

xulosalari taqdim etilishi;

- yuqori riskli va murakkab hosilaviy qimmatbaho qog'ozlarning vujudga kelishi va ularni tartibga solishning samarali tizimi shakllantirilmaganligi.

Inqirozning kelib chiqishining asosiy sabablarini tahlil qilar ekanmiz, iqtisodiyotda moliyaviy sektorning real sektor ustidan ustunlikka ega bo'lib borishi ma'lum bo'ladi. Boshqacha so'z bilan aytganda moliya bozorlarida foyda olish uchun derivativ bitimlarning amalga oshirilishi sun'iy "ko'pik"lar hajmining yanada ko'payishiga sabab bo'lgan. Ayrim iqtisodchilarning "yondashuvlari" asosida kapitalistik munosabatlarda davlatning moliya sektori ustidan nazorati bir muncha susayishi ushbu noxush holatga zamin hozirlab bergan. AQSH va Yevropaning bir qancha mamlakatlari shu omillar sababli iqtisodiy inqiroz tufayli katta talofatlarni boshdan kechirgan. Mamlakatimizda oldindan puxta o'ylangan iqtisodiy siyosatning yuritilganligi sababli 2008 yilda boshlangan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining O'zbekistonga ta'siri unchalik jiddiy bo'lmagan. Bunga asosan tashqi qarz miqdorining eng maqbul darajada ushlab turilishi, aholining ish haqi va daromadlarining doimiy ravishda oshirib borilganligi, mamlakat bank-moliya tizimining barqaror ekanligi, davlatning zaxira va zarur resurslar bazasiga ega ekanligi, davlatning bosh islohotchi ekanligi kabi omillar vositasida erishilgan.

Fikrimizcha quyidagi chora-tadbirlarning amalga oshirilishi inqirozning iqtisodiyotga ta'sirini kamaytirishga, uni oqibatlarini oldini olishga va yumshatishga xizmat qiladi:

- ✓ derivativ bitimlar faoliyatini tartibga soluvchi aniq va samarali mexanizmni amaliyotga tatbiq etish;

- ✓ korxonalarining har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida aylanma mablag'larini to'ldirish uchun davlat tomonidan imtiyozli kreditlar ajratish, soliqlardan imtiyozlar va preferensiyalar berish;

- ✓ bankka garov ta'minotiga olish tizimida narxi tez o'zgaruvchan – qimmatli qog'ozlarni qabul qilishga nisbatan qat'iy cheklovlar o'rnatish;

- ✓ korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish, bunda ishlab chiqarish harajatlari va mahsulot tannarxini kamaytirishga qat'iy amal qilish;

- ✓ energiya tejashning samarali usullarini amaliyotga joriy etish;

- ✓ bank muassasalari tomonidan doimiy ravishda kredit mablag'larini so'ndirib borilishi xususida monitoring o'rnatish va bu tizim ma'lumotlaridan butun mamlakat miqyosida foydalanish, iste'molchilarda kredit madaniyatini shakllantirish;

- ✓ moliya bozorlari faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilinish mexanizmini

takomillashtirish;

✓ mamlakatning eksportbop mahsulotlar tarkibini soʻnggi innovatsion yutuqlar asosida ishlab chiqariladigan va jahon bozorida raqobatbardosh boʻlgan mahsulotlar bilan toʻldirish;

✓ tabiiy resurs tejamkorligi yuqori boʻlgan mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish;

✓ mamlakatda ishlab chiqariladigan mahsulotlarni eng soʻnggi texnika va texnologiyalardan foydalanish, shuningdek iqtisodiyotni modernizatsiya qilish hamda tarmoqlarni diversifikatsiyalash orqali tannarxini kamaytirish;

✓ aholining iqtisodiy nochor qatlamini davlat tomonidan manzilli dasturlar asosida qoʻllab-quvvatlash;

✓ moliya bozorlari toʻgʻrisidagi maʼlumotlarning aniqlik, betaraflik va shaffoflik asosida taqdim etilishini taʼminlash va boshqalar.

Nazarimizda ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi iqtisodiy inqiroz paytida uning taʼsirini kamaytirishda, oqibatlarini yumshatishda va inqirozlarga qarshi yangi dasturlar ishlab chiqish va ularning samaradorligini oshirishda oʻz ifodasini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oʻzbekiston Respublikasining Prezidenti SH.Mirziyoyev tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 14 yanvarda oʻtkazilgan majlisidagi “Tanqidiy tahlil, qatʼiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi boʻlishi kerak” nomli maʼruzasi. //Xalq soʻzi, 2017 y. 16.01.

2. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, Oʻzbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yoʻllari va choralari. – T.:Oʻzbekiston, 2009, 11-bet.

3. Vahabov A., Jumayev N., Xoshimov E. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi:sabablari, xususiyatlari va iqtisodiyotga taʼsirini yumshatish yoʻllari. T., 2009. 23-bet.

4. Abulqosimov H.P., Abulqosimov M.H. Iqtisodiyotga oid atama va tushunchalarning izohli lugʻati. T., 2017. 221,256-betlar.

5. Shumpeter Y. Teoriya ekonomicheskogo razvitiy. M., 1982. str. 386.

6. <http://www.imf.org/external/pubs/ft/weo/2017/update/01/index.htm>. Xalqaro Valyuta Fondining rasmiy veb-sayti maʼlumotlari.

7. Milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlanish yoʻliga oʻtkazish. Ilmiy ishlar toʻplami. “Iqtisod va moliya” jurnaliga ilova № 2 (4), 2013. 91- bet.

8. <http://www.globalfirepower.com/external-debt-by-country.asp>.

9. UNITED NATIONS CONFERENCE ON TRADE AND DEVELOPMENT. Handbook of statistics 2015, p. 346.